

INGLIZ BADIY MATNLARIDA METAFORALARNING KOGNITIV-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Rustamov Dilshodbek Abduvaxidovich¹

Sayidov Shukrullo Xaliljonovich²

¹Andijon Davlat Universiteti, PhD, Dotsent

²Farg'ona Davlat Universiteti xorijiy tillar fakulteti

1 kurs magistranti 21.06 guruhi

ShukrulloSayidov1991@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6621470>

Annotatsiya: Bu maqola eng asosiy ma'no ko'chish turlaridan biri hisoblangan metafora haqida keng ma'lumot beradi va bu ko'chim turi maqolada lingvistik, kognitiv hamda stilistik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola ingliz badiiy asarlarida metaforaning ahamiyati va o'rne haqida so'z yuritadi. Barcha fikrlar misollar orqali yoritiladi.

Annotation: This article provides extensive information on metaphor, which is considered to be one of the most basic types of semantic figure of speech, and analyzes this type of figure of speech linguistically, cognitively, and stylistically. It discusses the importance and place of metaphor in English art, as well. All ideas are illustrated with examples

Kalit so'zlar: metafora, metonimiya, ma'no ko'chish, ko'chim, lingvistik, kognitiv, stilistika.

Keywords: metaphor, metonymy, semantics, figure of speech, linguistics, cognition, stylistics.

Badiiy tilning eng muhim spesifik xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionalli ko'rsatiladi. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib «badiiy tasvir va ifoda vositalari» deb ataymiz. Ma'lumki, badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda «poetik vositalar», «sintaktik figuralar», «stilistik figuralar» kabi nomlar bilan yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning buni tasvir, buni ifoda vositasi deyishlik ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Ya'ni ko'p hollarda bitta vositaning o'z ham tasvir ham ifoda bo'lib xizmat qiladi. Faqat lirik asarlarda qo'llaniluvchi ayrim vositalar (masalan: tovush takrorlari) borki, ular asosan ifodalilikni kuchaytirish

vazifasini bajaradi.

Metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, allegoriya, jonlantirish, parafraza kabi usullar ko'chmlarning turlaridir. Ulardan eng mashhuri metafora hisoblanadi. Metafora – narsa-buyum, voqea – hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chish turi hisoblanadi. Mumtoz adabiyotshunoslikda metafora "isteora" deb ham yuritiladi. Metaforaning ikki turini farqlash lozim. Ular Lingvistik metafora, xususiy muallif metaforalaridir.

Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa. Bunday metaforalar asosan nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda ekspressivlik, binobarin ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi. Bizga keraklisi esa xususiy metaforadir. Xususiy metafora – muallif metaforalari deb ham yuritilib, yozuvchining estetik maqsadi, ya'ni borliqni subyektiv munosabatini ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi.

Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

Metaforada so'zlar ko'chma ma'noda bo'ladi.

Metafora bir komponentli bo'ladi.

Shuningdek, metaforalar garchi ko'plab turlarga ega bo'lsa-da, stilistikada uslubiy metaforaning o'rne katta. Ularda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa tushunchaga o'xshatiladi.

Masalan: shirin tabassum, shirin gap ,yengil tabassum, yengil nigoh.

Turli manbalarda metaforani adabiyot uchun tomchi suvdek muhim hisoblashadi. Chunki yozuvchilar yoki shoirlar o'z asarlariga badiiy bo'yoq berish uchun yoki bo'yoqdorlikni yaratish uchun metafordan juda ko'p foydalanishadi. Ba'zan esa bir metafora butun bir gapning tarjimoni ham bo'lishi, agar bu vosita olib tashlansa, matn o'z ma'nosini yo'qotishi ham mumkin.

Ayniqsa, ingliz adabiyoti bundan mustasno emas, xususan, George Orwellning "Animal farm" asaridan quyidagi jumlani olaylik.

Beasts of England, beasts of Ireland,

Hearken to my joyful tidings

Of the **golden future time**.

Soon or late the **day is coming**,

Tyrant Man shall be o'erthrown.

Golden future time iborasi metaforaning aynan timsoli bo'lib, kelajak hech qachon oltin bo'lmaydi. Faqatgina uni oltindek porloq bo'lishi mumkinligini

yozuvchi aynan metafora orqali yoritmoqda. “kun kelyapti” “**day is coming**” iborasi esa harakat metaforasi bo’lib, kun jonlantirilib, unda harakat motivi akslantiriladi. Bu orqali eng mavhum tushunchalar ham o’quvchiga osonlik bilan yetkaziladi.

Yoki ingliz yozuvchisi Ayris Merdokning “Tuzoqda” romanidagi quyidagi metaforaga e’tibor qarataylik.

“The eyes are the one part of the face which nothing can disguise, or at any rate nothing which has been invented yet. The eyes are **the mirror of the soul**, and you can't paint them over or even sprinkle them with **gold dust**. Magdalen's are big and grey and almond-shaped, and glisten like pebbles in the rain”.

“Ko’zlar qalb oynasi” jumlasida shundayin bir oshkora metafora borki, o’quvchida bu bo’yicha darhol tasavvur hosil bo’ladi. Ayniqsa, ularning ko’zguna mengzanishi “ko’zlar - qalb oynasi” iborasi tasviriy ifodani yanada boyitadi. “Gold dust” esa hali o’zbek adabiyotida uchramagan badiiy tasviriy vosita bo’lib, “oltin g’ubor” bilan ham ko’zlarni yashirolmaysan ma’nosini beradi. Ya’ni, garchi g’ubor oltin bo’lsa ham ko’zlardagi ma’noni yashirishga kuchsizlik qiladi.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, metafora orqali ikkita bir-biriga o’xshamagan yoki bog’liq bo’lmagan tushunchalar bog’lanadi, o’quvchining diqqatini tortish maqsadida kutilmagan o’xshatishlar qilinadi, mavhum va tushunarsiz bo’lgan holatlarni yozuvchi aynan shu usul orqali o’quvchiga yetkazib beradi. Badiiy adabiyotda ko’plab yozuvchilar ifodalamoqchi bo’lgan fikrlariga rang berish, ba’zan bo’rttirish uchun ishlatishadi. Sababi, asarlar o’zining badiiy o’xshatmalari bilan o’quvchini o’ziga tortadi, badiiy uslubning, ya’ni stilistikaning ahamiyatini yanada oshiradi. Asar haqidagi fikrni qiziqarli, hayotiy qilib, o’quvchining qahramon va u yashayotgan dunyoni erkin tassavur qila olishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hozirgi o’zbek adabiy tili.2-kitob. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova; ILM ZIYO» TASHKEHT-2016.
2. 90+ Metaphor Examples in Literature That You Need to Know 19 october 2018.
3. Metaphor - Literary Terms literaryterms.net › metaphor What is A Metaphor? —Definition and Examples | Grammarly www.grammarly.com › blog
4. Iris Murdoch, the book “under the net” in English.
5. George Orwell “Animal farm”
6. Umurov H. Badiiy ijod asoslari.-T.: O’zbekiston, 2001